XIVA XONLIGINING ROSSIYA IMPERIYASI TOMONIDAN BOSIB OLINISHI

Izzatillaxon Maxmutaliyevich Xaydarov,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Markaziy Osiyo xalqlari tarixi" kafedrasi professori, tarix fanlari doktori (DSc)
E-mail: izzatillakhon@gmail.com

Durdiyev Bekdurdi Jumanazar o'g'li,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, "Sharq mamlakatlari tarixi" yo'nalishi 2-kurs talabasi
E-mail: bekturdi1313@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19728585

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Xiva xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi jarayoni, uning tarixiy sabablari hamda oqibatlari yoritildi. Maqolada XIX asrda Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga olib borgan harbiy yurishlari, Xiva xonligining siyosiy va harbiy holati, shuningdek, bosib olish jarayonida yuz bergan muhim voqealar haqida batafsil ma'lumotlar ochib berildi.*

Kalit so'zlar: *Xiva xonligi, Rossiya imperiyasi, istilo, harbiy yurishlar, Kaufman, 1873-yil, Gandimiyon shartnomasi, protektorat, Markaziy Osiyo, siyosiy bosim.*

Abstract. *This article highlights the process of the conquest of the Khiva Khanate by the Russian Empire, its historical causes, and its consequences. The article provides detailed information about the military campaigns carried out by the Russian Empire in Central Asia in the 19th century, the political and military condition of the Khiva Khanate, as well as important events that occurred during the conquest.*

Keywords: *Khiva Khanate, Russian Empire, conquest, military campaigns, Kaufman, 1873, Treaty of Gandymiyan, protectorate, Central Asia, political pressure.*

Аннотация. *В данной статье освещаются процесс завоевания Хивинского ханства Российской империей, его исторические причины и последствия. В статье подробно раскрыты сведения о военных походах Российской империи в Центральную Азию в XIX веке, политическом и военном положении Хивинского ханства, а также о важных событиях, произошедших в ходе завоевания.*

Ключевые слова: *Хивинское ханство, Российская империя, завоевание, военные походы, Кауфман, 1873 год, Гандимианский договор, протекторат, Центральная Азия, политическое давление.*

Kirish. Rossiyaning hukmron doiralari Turkiston general-gubernatorligini o'zining O'rta Osiyodagi harbiy rejalarini amalga oshirish uchun tayanch markaziga aylantirib, bu safar istilo tig'ini Xiva xonligini to'la bo'ysundirishga qaratdilar. Ular Pyotr I vasiyatini sira unutmagan edilar. 1717-yilgi Bekovich-Cherkaskiy qo'shinining halokati va 1839-yilda Perovskiy yurishining barbod bo'lganligi rus generallarining xotirasidan chiqmagan edi. Pyotr I ning bosqinchilik rejasini to'la amalga oshirish uchun tayyorgarlik ishlarini poyoniga yetkazgach, istilochilar Xiva

xonligiga ko‘z tika boshladilar. Xiva xonligi mustaqilligi bilan mustamlakachilarga jiddiy xavf solib turar edi. U ming yillardan buyon davom etib kelayotgan qadim Xorazm davlati timsoli sifatida ham Rossiya uchun xavfli ko‘rindi.

Adabiyotlar sharhi. H. Sodiqov, R. Shamsutdinov, P. Ravshanov va Q. Usmonovning “Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida” nomli asarida Rossiya imperiyasining Turkiston hududlarini bosib olish siyosati, jumladan, Xiva xonligiga qarshi olib borilgan harbiy yurishlar va ularning siyosiy-iqtisodiy oqibatlari keng yoritilgan. Mualliflar tomonidan mustamlakachilik siyosatining mahalliy boshqaruv tizimiga ta’siri, iqtisodiy resurslarning o‘zlashtirilishi hamda hududning imperiya tarkibiga qo‘shib olinishi jarayonlari izchil tahlil qilingan. H. Ziyoyevning “Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash” asarida esa Rossiya bosqiniga qarshi mahalliy aholi va hukmdorlar tomonidan olib borilgan qarshilik harakatlari, jumladan, Xiva xonligining mustaqillikni saqlab qolish yo‘lidagi urinishlari batafsil o‘rganilgan. Muallif ushbu jarayonlarni tarixiy manbalar asosida yoritib, bosqinga qarshi kurashning sabablari va natijalarini tahlil qiladi. M. Mahmudov va U. Sheripovning “Xiva xonligi tarixi (ijtimoiy-siyosiy jihatlari)” nomli tadqiqotida xonlikning ichki siyosiy tuzilishi, ijtimoiy hayoti va Rossiya bosqini arafasidagi umumiy holati chuqur tahlil etilgan. Asarda ayniqsa, xonlikning ichki zaifliklari va siyosiy beqarorlik omillari Rossiya tomonidan bosib olinishi jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatgani yoritib berilgan. Azamat Ziyoning “O‘zbek davlatchiligi tarixi” asarida esa Xiva xonligi Rossiya bosqiniga qadar bo‘lgan davrda o‘zbek davlatchiligi tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqiladi. Muallif xonlikning siyosiy taraqqiyoti, boshqaruv tizimi va tashqi aloqalarini tahlil qilib, uning zaiflashuv omillarini ochib beradi. Q. Usmonovning “O‘zbekiston tarixi” darsligida esa Xiva xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi jarayoni umumlashtirilgan holda bayon etilib, 1873-yilgi harbiy yurish, Gandimiyon shartnomasi va uning oqibatlari ilmiy-nazariy jihatdan izohlangan. Darslikda ushbu voqealarning O‘zbekiston tarixidagi o‘rni va ahamiyati ham alohida ko‘rsatib o‘tilgan.

Natijalar. Rossiya imperiyasi o‘z tasarrufidagi qozoqlarni ozodlik kurashiga rag‘batlantirib turgan Xiva ekanligini ham yaxshi bilardi. Qozoqlarning milliy-ozodlik kurashiga rahbarlik qilgan Kenesari Qosimov Xivadan doimo madad olib, o‘n yil davomida Rossiyani bezovta qilib kelayotganligini ham unutmaganlar. Masalaning siyosiy tomonidan tashqari, Sankt-Peterburg butun Turkiston o‘lkasida tijorat ishlarini ham batamom o‘z qo‘liga olishni maqsad qilib qo‘ygan edi. Kaspiy dengizining sharqiy sohillaridan Turkiston shaharlariga olib boruvchi barcha savdo yo‘llari esa Xiva xonligi hududlaridan o‘tardi.

1872-yil oxirlarida harbiy vazir boshchiligida Peterburgda Turkiston, Orenburg general-gubernatorlari va Kavkazdagi podsho noiblari ishtirokidagi maxfiy kengashda Xiva xonligini bosib olishga qaror qilinadi. Generallar rejasiga ko‘ra, Turkiston general-gubernatorligiga qarashli kuchlar sharqdan, Orenburg gubernatori va Kavkaz noibligi ixtiyoridagi harbiy kuchlar esa g‘arbdan va shimoli-g‘arbdan Xiva ustiga yurishlari kerak edi. Rossiyaning tajovuzkorona niyati Xiva xoni va uning oliy mansabdorlariga sir emas edi. Sayid Muhammad Rahimxon II (1865–1910) 1872-yilda Hindiston vitsa-qiroli huzuriga elchi yuborib, ruslar tahdidiga qarshi Angliyadan madad so‘ragan edi. Xonning elchisi Aminboy Muhammad o‘g‘li Kalkutta shahrida lord Norsbruk bilan muzokaralar olib bordi. Angliyaning hukmron doiralari Xiva mustaqilligini saqlab qolishdan manfaatdor bo‘lsalar ham, Rossiya bilan ochiq to‘qnashuvdan xavfsirardilar. London o‘zining boy mustamlakasi Hindistonga ruslar tahdid solishidan va Afg‘onistondagi mavqega Rossiyaning jiddiy xatar yetkazishini hisobga olib, Xivaga yordam ko‘rsatmaslik yo‘lini tutdi. Hindiston vitsa-qiroli Norsbruk shu sababli elchiga imkon qadar ruslar bilan aloqani yaxshilash vositalarini ishga solishni hamda qo‘shni musulmon davlatlari ittifoqini vujudga keltirishni maslahat berdi. Lord Norsbruk, agar ruslar bilan urush bo‘lib qolsa, Angliya yordamiga umid qilmaslikni ham ochiq izhor qildi.

Xiva endi o‘z kuchi va imkoniyatiga qarab ish ko‘rishi lozim edi. Xonlik qo‘shinida hammasi bo‘lib 27 eski zambarak, 2 ming otliq askar, 4 ming navkar bo‘lib, ular ham asosan poytaxtda jamlangan edi. Xiva istilosiga otlangan Rossiya qo‘shini ham son, ham sifat jihatidan, shuningdek harbiy texnika imkoniyati, qurol-yarog‘lari bilan ham Xiva xonligi qo‘shinidan ustun edi. Mazkur harbiy operatsiyaga rahbarlik qiluvchi zobitlar va generallar amaliy tajribasi ham xivalik lashkarboshilardan ko‘p darajada yuqori edi. Turkiston qo‘shinlariga (22 rota, 1800 kazak va 18 to‘p) general Kaufman, Orenburg otryadiga general Veryovkin (15 rota, 600 kazak, 8 to‘p), Mang‘ishloq otryadiga polkovnik Lomakin (12 rota, 800 kazak, 8 to‘p) qo‘mondon bo‘lib, Orol flotiliyasi ham ularning ixtiyoriga berilgan edi.

Istilochilar qo‘shini shu yo‘sinda uch yo‘nalish bo‘yicha Xiva xonligi ustiga bostirib kirdi. Rus askarlari general-leytenant fon Kaufman va general-mayor Golovachyov qo‘mondonligi ostida Toshkent tarafdan, ikkinchi yo‘nalishdagilar general Veryovkin va uchinchi yo‘nalishdagi ruslar polkovnik Lomakin qo‘mondonligida Kaspiy dengizi tarafdan Xiva tomon kirib keldi. Imperator Aleksandr II Xiva yurishiga katta e’tibor beradi. Hatto, aytish joizki, imperator oilasining a’zolari – buyuk knyazlar Xiva sari yurishda bevosita qatnashadilar. Nikolay, Konstantin, Yevgeniy Romanovlar va Gersog Leytenbergskiy kabi oliy

zotlarning harbiy qismlarga qo‘mondon qilib tayinlanganligi ham Rossiyaning Xiva istilosiga katta e’tibor berganini ko‘rsatadi.

Turkiston general-gubernatori fon Kaufman yurish oldidan Xivani siyosiy tarafdan ham yakkalab qo‘yish choralarini ko‘radi. U Buxoro amiri va Qo‘qon xoniga tahdidli maktublar yozib ularni Xiva xonligiga yordam bermaslikka davat etadi. Sayid Muhammad Rahimxon (1865-1910) davrida Kaspiy dengizi bo‘ylarida qozoqlar tomonidan ruslarni asirga olib, xonlikda sotish biroz jonlanadi.

1870-yil 24-martda Mang‘ishloq manzilgohining boshlig‘i polkovnik Rukin harbiy qism bilan ahvolni bilish uchun Odayli (Oday) qabilasi yerlariga borganida bir guruh qozoqlar bilan to‘qnashadi. Natijada ruslardan bir ofitser o‘ldirilgan va bir necha soldat asirga olinib, Xivada sotib yuborilgan. Shu munosabat bilan Orenburg general-gubernatori chiqlich (qabilaga mansub) Zoyir Turlubekovni asirlarning bo‘shatilishini so‘rab Xivaga yuborgan. Bu yerda xon uni hurmat bilan qabul qilib, asirlarni bo‘shatishga va’da beradi va u bilan birga otaliq Bobo Ernazar Qobilovni (qoraqalpoq) elchi sifatida Rossiyaga jo‘natadi.

Rus arxiv ma’lumotlariga ko‘ra, 1872-yil 12-martda elchi Orenburgga kelgan. Bu yerda elchi xonning imperatorga va devonbegining Orenburg general-gubernatoriga yozgan xatlarini ma’lum qilib, Peterburgga borishi lozimligini bildiradi. Ammo Tashqi ishlar vazirligining ko‘rsatmasiga binoan elchining so‘rovi rad etiladi. Elchi Orenburg harbiy ma’muriyatining vakili bilan suhbatda Rossiya bilan xonlik o‘rtasidagi chegara masalasi haqida gapirganda, rus hukumati asirlar ozod qilinganidan keyingina muzokara olib borishi mumkinligini bildiradi. Elchi esa hech bir natijasiz vataniga qaytadi. “Shundan keyin, — deyiladi Bayoniyda, — Rossiya davlati tomonidan Davlat To‘ra ibn Bushay To‘ra otliq elchi sifatida kelgan.” Bu elchi aslida 1869-yil oxirida Turkiston general-gubernatori K. Kaufman tomonidan yuborilgan edi. Uning xonga yuborgan xati mazmuni quyidagicha edi: “Siz bilan bizlar avvaldan do‘stlik bilan muomala qilib yurar edik. Hozirda eshiturmizkim, bir necha o‘g‘ri va avboshlar biz tomondan bir necha kishini asir qilib, u taraflarda sotgan emishlar. Umid shulkim, avvalgi do‘stlikni rioya qilib, o‘sha asirlarni berib yuborsangiz. Qozog‘istondan u taraf sizning hududingiz, bu taraf esa bizga tegishlidir. Bundan so‘ng aslo bir-birimiz hududiga tajovuz bo‘lmasin, do‘stona munosabatni saqlaylik. Insonlar aziz va hurmatli xalqdir. Ularni chorva kabi bozorda sotish hech joyda yaxshi ish emas. Agar bu gaplarni qabul qilsangiz, minnatdor bo‘lamiz. Aks holda, bunday ishlarning oxiri nizo va urushga olib keladi, vassalom”.

Elchi Muhammad Rahimxonning imperatorga quyidagi xatini olib boradi: “Qadim zamonlardan buyon har ikki tomonning oliy hukumatlari o‘rtasida hamjihatlik hukm surib, o‘zaro aloqalar oshkoralik va do‘stlik asosida

mustahkamlanib borgan edi… Ammo o‘tgan yili sizning askarlaringiz Chelakda, xususan (Krasnovodskda) paydo bo‘lib qoldi. Yaqinda o‘sha qo‘shinning kichik qismi bizga qarashli Sarig‘amishga kelgan va so‘ngra qaytib ketgan. Bundan tashqari, Toshkent va Oqmasjid tomonidan qo‘shinlar bizning chegaramizdagi Mingbuloq qudug‘igacha kelganlar. Buni ulug‘ knyaz biladimi yoki yo‘qmi, bizga noma’lum. Vaholanki, biz tomondan hech qachon do‘stlikka zid bunday harakat qilinmagan. Faqat bir marotaba bizning qo‘l ostimizdagi qozoqlardan 5–6 dovyurak kishilar siz tomonga yuborilgan, lekin ular bizning chegaramizdan nariga o‘tmay, hech qanday ziyon yetkazmay, orqaga qaytganlar. O‘sha jamoadan ayrim kishilar sizlarning 5–6 odamlaringizni qo‘lga tushirganlar, lekin biz ularni tortib olib, o‘zimizda saqlamoqdamiz…

Agar siz biz bilan do‘stona munosabatda bo‘lishni xohlasangiz, u vaqtda ilgari chegaralarni tan olish haqida shartnoma tuzing. Shundagina sizlarning qolgan odamlaringizni qaytaramiz. Bordi-yu mana shu asirlar bizga dushmanchilik harakatlari va chegaralaringizni kengaytirish uchun shunchaki bir bahona bo‘lsa, u vaqtda Xudoi taoloning xohish-irodasini ado etishdan boshqa ilojimiz qolmaydi”.

Endilikda o‘zbek xonliklari Angliyadan yordam olish borasida fursatni boy berib, kechikkan edilar. Chunki ilgariroq vaqtlarda Angliyaning tashabbusi xonlik tomonidan inobatga olinmaganligi Rus davlatining bosqinchilik siyosati uchun ancha qulay sharoitni yuzaga keltirdi. Endilikda Rossiya xalqaro doirada unchalik qarshilikka uchramay, rejalarini bemalol amalga oshirish imkoniga ega bo‘ldi. Ayniqsa, Buxoro amiri tomonidan ayrim yevropaliklarning o‘ldirilishi xonliklar to‘g‘risida yomon taassurot qoldirgani ham Rus davlatiga foyda keltirdi. Xullas, qulay xalqaro vaziyat, xonliklardagi ichki nizolar va tadbirsizlik rus hukumatiga qo‘l kelib, mintaqada ruslarning mavqeini oshirib yubordi.

Chunonchi, rus hukumati 1869-yili hozirgi Krasnovodsk shahri o‘rnida polkovnik Stoletov rahbarligida yana bir harbiy istehkom barpo etdi. Kavkaz harbiy okrugiga qarashli bu istehkom turkmanlar va xonlik mustaqilligiga xavf tug‘dirdi. Shu boisdan turkmanlarning jangovar qismlari bilan bosqinchilar o‘rtasida to‘qnashuvlar yuz berdi. Rus soldatlari g‘olib chiqib, bir necha turkman ovullarini buzib tashladilar. Ko‘p sonli Xiva qo‘shini esa Embadagi harbiy qal’ani qurshab oldi, lekin ular o‘zlarining zaifliklarini anglab, qaytib ketdilar.

Erishilgan g‘alabalar Krasnovodskdagi qal’a boshlig‘i polkovnik Stoletovning manmanligini shu darajada ko‘tardiki, u o‘zboshimchalik bilan Xiva xonligini bosib olish uchun qizg‘in tayyorgarlik ko‘ra boshladi. Ammo hukumatning oliy martabali vakillari Stoletovni hukumatni mensimaslik va o‘zboshimchalikda ayblab,

vazifasidan chetlatdilar. Xiva xonligini tezroq bosib olish uchun ruxsat berilishini K. Kaufman ham bir necha bor hukumatdan so‘ragan edi.

Nihoyat, 1872-yilning dekabrida imperator Aleksandr boshchiligida o‘tkazilgan maxsus yig‘ilishda xonlikni bosib olishga ruxsat etildi. U yerga uch tomondan, ya’ni Toshkent, Orenburg va Krasnovodskdan harbiy yurish uyushtirish haqida ko‘rsatma berildi. Bu joylarda 1871-1872-yillar mobaynida harbiy tayyorgarlik qizitib yuborilgan edi. Chunonchi, Kaspiy dengizi va xonlik o‘rtasidagi joylarni tekshirish va ma’lumotlar to‘plash maqsadida bir necha bor harbiy ekspeditsiyalar uyushtirildi.

1872-yil 12-sentabrda polkovnik Markozov qo‘mondonligida 1700 kishilik askar 14 to‘p bilan Mang‘ishloq va Chekishlar degan joylardan chiqib, 25-sentabrda Topitog‘ga kelgan. Ruslar yo‘lda Xivadan Atrek tomonga ketayotgan savdo karvonini talab, ko‘p tuya va qo‘ylarni o‘lja olganlar. Bir rus harbiy qismi Xivaga boradigan yo‘llar sharoitini o‘rganish uchun Jamol qudug‘iga kelganda 600 kishilik Xiva otliqlari bilan to‘qnashgan. Bu to‘qnashuvda ruslar 150 tuyani qo‘lga tushirishgan. Rus askarlariga 1000 otliq Axalteka turkmanlari hujum qilganlarida ulardan ko‘p kishi o‘ldirilgan, bosqinchilardan esa 4 kishi o‘ldirilib, 6 kishi yarador bo‘lgan.

Rus harbiy qismlari turkmanlarni qarshilik ko‘rsatganliklari uchun jazolash maqsadida Ichdi degan joyda ulardan 1000 qo‘yni tortib olgan. Shundan keyin polkovnik Markozov Qizil Arvotga kelib, qo‘shinning bir qismini shu yerda qoldirib, qolgan qismi bilan Axalteka vodiysidagi Koj, Zov, Qizil Chashma, Jenchi, Bomi kabi turkman ovullariga kelib, 1200 xonadonga o‘t qo‘ygan va mol-mulklarini talagan. Ammo bunday vahshiylar erksiz turkmanlarni qo‘rqita olmadi. 1873-yilning yanvarida Atrek qirg‘oqlarida bosqinchilar bilan turkmanlar o‘rtasida yana jang bo‘lgan.

Rus hukumati shu darajaga borib yetdiki, harbiy ta’minotning bir qismini ochiqdan-ochiq bosmachilik qilish hisobiga to‘ldirishdan ham toymadi. Masalan, 18 rota, 9 to‘p va 200 kazakdan tashkil topgan qo‘shin Atrek suvidan o‘tib, turkmanlarning 3000 tuyasini tortib olgan. Hal qiluvchi harbiy yurishning uch tarafdan amalga oshirilishi haqidagi qaror 1873-yilning bahorida kuchga kirdi. Zero, aprelning birinchi yarmida polkovnik Lomakin qo‘shini Mang‘ishloqdan yo‘lga otlandi. U 14-mayda Ustyurt orqali yurib, urushsiz Qo‘ng‘irotni egallaydi. Polkovnik Markozov Krasnovodskdagi qo‘shin bilan Oydin, Ichdi degan joylarni egallab, turkmanlar bilan jang qiladi. 16-aprelda sodir bo‘lgan bu to‘qnashuvda bosqinchilar 200 kishini asir, 1000 qo‘y va 5000 tuyani o‘lja olib, xalqni xonavayron etadilar. Ammo Krasnovodsk qo‘shini havoning issiqligi va suvsizlikka chiday olmay, ko‘p ot va tuyalar kasallanib o‘lishi oqibatida orqaga qaytishga majbur bo‘ladi. Boshqa

yo‘ldan ketayotgan Kavkaz harbiy okrugiga qarashli harbiy qismlar esa Xiva tomon yurishni davom ettiradilar.

1873-yilning 15-fevralida Orenburg general-gubernatorligi tomonidan ham qo‘shin yo‘lga chiqqan edi. Bu harbiy qismlar Orenburg, Orsk va Uralda tayyorlangan bo‘lib, ular Emba hududida birlashganlar. O‘sha yilning 20-aprelida general Veryovkin boshchiligidagi qo‘shin Orol dengizi qirg‘og‘iga kelib o‘rnashadi. 20-mayda ular Qo‘ng‘irotga keldilar. Bu yerda ular Mang‘ishloq harbiy qismlari bilan qo‘shilishib, yo‘lni davom ettiradilar.

Turkiston harbiy gubernatorligiga qarashli joylardagi qo‘shinlar Toshkentdan, Qozoqli va Perovskdan yo‘lga chiqishlari lozim edi. Jizzax qo‘shinining bir qismi general Golovachyov boshchiligida 1873-yil 1-martda Toshkentdan, ikkinchi bo‘limi 11-martda Xo‘janddan chiqib, Qili arig‘ida birlashdilar. Ular bilan birga K. Kaufman ham kelgan edi. Polkovnik Golov boshchiligidagi Qozoqli va Perovsk qo‘shini 6-8-martda yo‘lga chiqib, Erkaboy degan joyda qo‘shildilar. Keyin ular Qizil-Kuk, Bukan tog‘i, Uchquduq, Tomdi orqali 12-aprelda Aristonbelga kelib, Turkiston general-gubernatorligi harbiy qismlariga qo‘shildilar.

Muhammad Rahimxon Kaufman huzuriga yuborilgan elchi qaytmaganidan keyin bir oz bo‘lsa-da ko‘zi ochilib, dushmanga qarshi qo‘shin yuborishga qaror qiladi. Xon Muhammad Murod devonbegi qo‘l ostidagi o‘zbek va turkmanlardan iborat qo‘shinga Mahmud Yasovulboshi va Yoqubboy qalmoq singari lashkarboshilarni qo‘shib, Kaufman kelayotgan tomonga, ya’ni sharqqa yuboradi. Eltuzar inoq bilan Bobo Muxtorni 6000 askar bilan shimolga — Qo‘ng‘irotga yuboradi. 2000 kishilik askarlar Amir To‘ra va Muhammad Rizo boshchiligida Hazoraspga yuboriladi. Inoqbek degan kishiga biriktirilgan qo‘shin esa Xo‘jayliga boradi.

Orenburg va Mang‘ishloq harbiy qismlari Qo‘ng‘irotdan yo‘lni davom ettirib, Xo‘jayli tomonga yaqinlashganlarida 6000 kishilik Xiva otliqlari bir necha to‘plar bilan ularning yo‘lini to‘sishga harakat qilgan bo‘lsalar-da, lekin qattiq jangga kirishishga botina olmaydilar. Lashkarboshi Eltuzar inoq Abdulla mahram boshchiligida askarlarni yuborish bilan chegaralanadi, xolos. Ular bilan dushmanning ikki harbiy qismi o‘rtasida jang bo‘lib, vatan himoyachilaridan 13 kishi o‘ldirildi va bir necha odamlar jarohatlandi. Bunday kichik to‘qnashuvlar keyin ham sodir bo‘ldi, lekin dushman kuchlari g‘olib kelaverdi. Pirovardida Xo‘jayli ruslar tomonidan urushsiz qo‘lga kiritildi. Bosqinchilar bu yerdan 18-may kuni Mang‘it tomonga yo‘lga chiqdilar. Vatan himoyachilarining ayrim guruhlari dushmanning harbiy qismlari bilan to‘qnashgan bo‘lsalar-da, lekin yengilib, Mang‘itga chekinishga majbur bo‘ldilar.

Shundan keyin general Veryovkin boshchiligidagi qo‘shin Mang‘it yo‘liga kirib yurdi. U paytda o‘zbeklar lashkari tarqalib, Inoqbek qushbegi bilan Xivaga qaytgan edilar. Yomut bilan chavdar ittifoq etib rus askariga qarshi bo‘lib, qattiq hujum bilan ot solib, bir hamlada kelib, Rossiya askariga aralashib, qatl qila berdilar. Rossiya askari ham g‘ayratga kirib, jang qizib ketdi. Askarlarning o‘ng tomoni yomut hujumiga uchradi. Maymana qism Verovykin zobitining qarorgohi edi. Verovykin sarosimaga tushib, Rossiya askari shikast topadigandek bo‘ldi. Ikki lashkar aralashib, jang murakkab tus oldi.

Shu ravishda turkmanlar dushmanning bir harbiy qismi bilan jangda ustun kelib, o‘ljalar bilan Mang‘itga qaytdilar. Turkmanlar o‘zaro maslahatlashib, dushmanga qarshi yana hujum qilishga qaror berdilar. Ammo ular rus soldatlari tomonidan yengilishga uchradilar.

Ruslarning shiddat bilan bostirib kelishi yuqori tabaqa vakillarini vahimaga solib qo‘ydi va ularning orasida taslimchilik kayfiyati tobora oshib bordi. Masalan, Gurlan hokimi Mahmudbek boshliq nufuzli kishilar general Verovykin huzuriga borib, Rossiya davlatiga ixtiyoriy ravishda bo‘ysunishga tayyor ekanliklarini ma’lum qildilar. Binobarin, xon taslim bo‘lganligini ma’lum qilib, bosqinchilarni mehmon sifatida poytaxtga taklif etgan. Ammo Kaufman uni rad qilib, Xivaga yaqinlashib kelaverdi. Muhammad Rahimxon Kaufmandan ham, Veryovkindan ham rad javobini olgach, nima qilishini bilmay, qochish taraddudini ko‘ra boshladi. Bu o‘ta xavfli vaziyatda Xiva shahridagi ahvolni Muhammad Bayoniy shunday ta’riflagan:

“Vaqtekim, Golovachyov shaharga to‘p otmoq boshladi, shahar ahli ham qal’aning xokrezida turib, Rossiya askariga to‘p va miltiq otar edilar. Rossiya to‘pining kunguralari qal’aning ustida yorilib, ba’zi joylarni o‘t ola berdi. Muhammad Murod devonbegining Qutlimurodbiy otlig‘ o‘g‘liga ham o‘q tegib, shahid bo‘ldi. Xon hazratlari sarosima bo‘lib, Amir Tura va Inoqbek va Muhammadmurod devonbegi va Yoqubboy va boshqa amaldorlarni chaqirib, maslahat etib, yurtni Rossiyaga taslim etib, sulh qilmoqqa qaror berdilar. Ondin so‘ng bu mazmunda noma yozib, Eltuzar Inoqni elchi qilib, Kaufman tarafga yubordilar.

Ondin so‘ng xon hazratlari ko‘rdilar, to‘plarning o‘qlari qal’ani xarob etib boradur. Muhammadmurod devonbegi va Yusuf mahram va Abdusattor sayis va Abdullo bangi bilan o‘zlari Urganch darvozasidan chiqib, qal’a chekkasidan g‘arb tarafga yurish etdilar, toki Rossiya askarining atrofida yurgan o‘zbek va turkmanlardan kimnidir topsalar, ular bilan mudofaa qilmoq uchun. Yonlarida bulardan boshqa ham bir miqdor navkar otlilari bor edi. Mulla Orif hazratlari yonlarigacha borib, atrofni qidirib, hech kim topa olmadilar. Shundan so‘ng noiloj

bo‘lib Toshoyo‘q darvozasiga kelib, yana shaharga kirmoqchi bo‘ldilar, lekin Abdulqodir To‘ra ularni kirgizmadi”.

Shunday qilib, bosqinchilar Xivani egalladi va saroydagi barcha qimmatli narsalarni va 300 qo‘lyozma asarni talashib, Peterburgga olib ketganlar. Qolgan narsalarni esa soldatlar talashib olgan. Shu ravishda Muhammad Rahimxon shilingan saroyda o‘z faoliyatini Rossiyaning vakili sifatida qaytadan davom ettirdi.

Kaufman xonlikda turli sabablar bilan qo‘lga tushirilgan va qul sifatida ishlatilayotgan kishilarning darhol ozod qilinishini talab etdi. Xon bu ko‘rsatmani darhol amalga oshirdi. Kaufman Matniyoz devonbegini o‘ziga yaqin tutib, xonlikdagi ahvol haqida qimmatli ma’lumotlarni olib turgan. Uning chaqimchiligi sababli Muhammadmurod (Matmurod) devonbegi va Rahmatulla yasovulboshi xavfli shaxs sifatida Sibirga surgun qilish uchun Qozoqilga (Qozoqliga) yuborilgan.

Kaufman Muhammad Rahimxon, ayrim mahalliy nufuzli kishilar hamda rus ofitserlaridan iborat boshqaruv idorasini — devonni joriy etdi. Devon polkovnik Ivanov raisligida bir necha bor yig‘ilgan.

1873-yil 12-avgustda xonning Gandumkon (Gandimiyon) bog‘ida Kaufman sulh shartlarini Muhammad Rahimxon diqqatiga havola qildi:

1. Xon Umumrossiya imperatorining itoatli xizmatkorligini tan olib, O‘rta Osiyodagi oliy rus ma’muriyatining ruxsatisiz shartnomalar tuzmaydi.
2. Xonlik va rus yerlarining orasidagi chegara Amudaryo hisoblanib, uning o‘ng tomonidagi qirg‘oqlari Rossiyaga o‘tadi.
3. Rus kemalarining Amudaryo bo‘ylab suzishi uchun barcha imkoniyatlar yaratiladi.
4. Ruslar Amudaryoning chap qirg‘og‘ida qulay deb topilgan joylarda kemalar to‘xtaydigan bandargohlar qurishga haqlidirlar.
5. Ruslarga daryoning chap qirg‘og‘ida savdo omborlari qurishga ruxsat berilib, ularning muhofazasi xonlik zimmasiga yuklatiladi. Xonlikning barcha shaharlari ruslarning savdo qilishiga ochiq bo‘lishi kerak.
6. Rus savdogarlari barcha bojlaridan ozod etiladi. Bundan tashqari, ular barcha shaharlarda savdoning borishini kuzatib turish maqsadida o‘zlarining ishonchli vakillarini tayinlash huquqiga egadirlar.
7. Rossiya fuqarolariga xonlikda ko‘chmas mulk sotib olishga ruxsat beriladi.
8. Xonlik hukumati Rossiyadan o‘zboshimchalik bilan keluvchilarni qabul qilmaslikni va rus jinoyatchilarini topshirishni o‘z zimmasiga oladi.
9. Xonlik zimmasiga 2 000 000 so‘mlik tovonni 20 yil davomida to‘lash majburiyati yuklanadi. Undan har yili 5 foizini to‘lab turish belgilanadi.

Birinchi to‘lov 1873-yil 1-dekabrdan boshlanadi. Shu asosda birinchi ikki yillikda 100 000 so‘mdan, keyingi ikki yillikda 125 000 so‘mdan tovon xalqdan soliq olish hisobiga Rossiya xazinasiga yuborildi.

Sulh shartlari Xiva xonligining mustaqilligini barbod etish bilan birga, allaqachon nihoyatda og‘ir sharoitga tushib qolgan xalqning hayotini yanada yomonlashtirdi. Xonlikni vayronaga aylantirgan harbiy qismlar 1873-yil avgustning birinchi yarmida o‘z joylariga — ortga qaytdilar.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Xiva xonligi Rossiya imperiyasining harbiy jihatdan ustun bosqinchilik siyosati natijasida mustaqilligini yo‘qotdi. Ichki zaifliklar va tashqi yordamning yetishmasligi sababli xonlik qarshilik ko‘rsata olmadi va og‘ir sulh shartlarini qabul qilishga majbur bo‘ldi. Bu esa uning siyosiy qaramligini kuchaytirib, xalq hayotini yanada og‘irlashtirdi hamda O‘rta Osiyoda Rossiya mustamlakachiligining mustahkamlanishiga olib keldi. Bundan tashqari, Xiva xonligining tashqi siyosatda yetarlicha mustahkam ittifoqlarga ega bo‘lmagani, boshqa qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro hamkorlikning sustligi ham uning yolg‘izlanib qolishiga olib keldi. Natijada xonlik Rossiya bosqiniga qarshi samarali qarshilik ko‘rsata olmadi va og‘ir hamda tengsiz shartlarga asoslangan sulh bitimini qabul qilishga majbur bo‘ldi. Bu bitim nafaqat siyosiy mustaqillikning cheklanishiga, balki iqtisodiy resurslarning katta qismining Rossiya manfaatlariga xizmat qilishiga olib keldi.

Shu tariqa, Xiva xonligining Rossiya imperiyasiga qaram bo‘lib qolishi uning ichki siyosiy hayotida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Mahalliy boshqaruv tizimi imperiya manfaatlariga mos ravishda qayta shakllantirildi, an’anaviy ijtimoiy tuzilmalar izdan chiqdi va xalq turmush darajasi sezilarli darajada og‘irlashdi. Eng muhimi, ushbu jarayon O‘rta Osiyo hududida Rossiya mustamlakachiligining yanada mustahkamlanishiga zamin yaratib, mintaqaning keyingi tarixiy taraqqiyot yo‘nalishiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sodiqov H, Shamsutdinov R, Ravshanov P, Usmonov Q. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – 466 b.
2. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash: (XVIII–XX asr boshlari) – T: Sharq, 1998. – 480 b.
3. Mahmudov M, Sheripov U. Xiva xonligi tarixi (ijtimoiy-siyosiy jihatlari). – Urganch: Urganch davlat universiteti noshirlik bo‘limi, 2013. – 136 b.
4. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar) — T: Sharq, 2000. — 368 b.
5. Usmonov Q. O‘zbekiston tarixi: Oliy o‘quv yurtlari barcha bakalavr yo‘nalishlari uchun darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2006. – 520 b.